O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

“INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALAR” KAFEDRASI

“YASHIL IQTISODIYOTDA INNOVATSION VA INVESTITSION FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

(2025 yil 24-25 oktabr)

SAMARQAND 2025

МИНИСТЕРТСВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

САМАРКАНДСКИЙ ИНСТИТУТ ЭКОНОМИКИ И СЕРВИСА

КАФЕДРА “ИНВЕСТИЦИИ И ИННОВАЦИИ”

Материалы Республиканской научно-практической конференции на тему

“ИНВЕСТИЦИИ В ЗЕЛЕНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ: ПРОБЛЕМЫ И ВОЗМОЖНОСТИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ”

(24-25 октября 2025 г.)

САМАРКАНД – 2025

UO'K:330.322:330.15
B 49
KBK: 65.9(5O')-56

"Yashil iqtisodiyotda innovatsion va investitsion faoliyatni rivojlantirish: muammo va yechimlar". 2025-yil 24-25 oktabr, Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumani materiallari – Samarqand: SamISI, 2025 - 910 bet.

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: assistent D.A.Miyassarov.

Nashr uchun mas'ullar:

A.Bektemirov - iqtisodiyot fanlari doktori, prof., N.H.Ruzibayeva - dotsent, PhD, A.A.Turayev - dots.v.b., PhD, A.A.Bekmurodov - dots.v.b., PhD, S.N.Baratov dots.v.b., PhD, B.M.Quliyev - dots.v.b., PhD, O.Y.Ashurova - katta o'qituvchi, G.T. D.F.Nasirov - katta o'qituvchi, G.T.Qarajanova - katta o'qituvchi, E.A.Nozimov - katta o'qituvchi, Z.X.Rafiyeva - assistent, G.A.Xolmirzayeva - assistent, M.S Qarshiyeva - assistent, Y.J.Xaknazarova - assistent, A.A.Axrorov - assistent.

Sahifalovchilar: O.Yu.Ashurova, A.A.Turayev, E.A.Nozimov, G.T.Qarajanova, Z.X.Rafiyeva, M.S Qarshiyeva, G.A.Xolmirzayeva,

"Yashil texnologiyalarga investitsiyalar: barqaror rivojlanish yo'lidagi muammolar va imkoniyatlar" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallarida yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish tendensiyalari va strategiyalarini ishlab chqishga, energiya tejamkor va ekologik toza ishlab chiqarishda yashil texnologiyalar va ularni rivojlantirishga, yashil iqtisodiyotda investitsion va innovatsion faollikni oshirishdagi muammo va yechimlarga, yashil texnologiyalarni rivojlantirishda inson kapitali va uning sifatini oshirishga, yashil texnologiyalarni moliyalashtirish manbalari ko'lamini kengaytirish va samaradorligini oshirishning dolzarb masalalariga hamda bu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlashga va ularning yechimlariga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarga boy maqola va ma'ruza tezislari o'rin olgan.

Ilmiy to'plam Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, talabalari, magistrlar, tayanch doktorantura, doktorantura, mustaqil izlanuvchilar va soha mutaxassislariga mo'ljallangan.

Maqolalar mualliflar tahririda bosilmoqda. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas'ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to'g'ri kelmasligi mumkin.

ISBN: 978-9910-09-586-3

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2025

2. Chakana tovar aylanmasining o’sish sur’ati yuksak darajada deb bo’lmaydi. Chunki, bu o’sish sur’atlarini narx indeksini hamda aholi soni o’sish sur’atlarini hisobga oladigan bo’lsak salmoqli emas. Shu bilan birga aholining ehtiyoji hamda iste’mol me’yorlariga nisbatan solishtirganda hali ko’plab tovar guruhlari bo’yicha ehtiyoj va me’yorlar qondirilmagan.

3. Olis qishloqlarda aholi jon boshiga savdo tovar aylanmasi juda pastligicha qolmoqda. Qishloqda savdo faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish zarur.

Yuqoridagilarni inobatga olib bugungi kunda savdo faoliyatini rivojlantirish uchun “Savdoni rivojlantirish kontseptsiya”sini ishlab chiqish kerak. Savdoda narx belgilash va savdo bo’yicha tushumlarning banklarga kelib tushishi ustidan qat’iy nazorat o’rnatilishi, savdoda monopoliyaga barham berish choralarini ko’rish kerak. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi savdo xizmatlari va uning sifatini dunyo darajasiga yetkazishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1.file:///C:/Users/user/Downloads/7.%D0%98%D0%A1%D0%A2%D0%95%D0%AA%D0%9C%D0%9E%D0%9B

2. https://daryo.uz/k/2023/09/30/ozbekistonda-sakkiz-oyda-savdo-sohasida-eng-kop-soliq-tolagan-korxonalarmalum-qilindi

3. https://daryo.uz/k/2024/03/13/ozbekistonda-umumiy-ovqatlanish-korxonalari-2023-yili-qariyb-1-trln-somdanortiq-soliq-toladi

Xolmatova Parvina Asliddin qizi *SamISI tayanch doktoranti*
08.00.05. –“Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti”

YASHIL INVESTITSIYALAR ASOSIDA O‘ZBEKISTON EKOLOGIK TURIZM SEKTORIDA RAQOBATBARDOSH VA BARQAROR RIVOJLANISH MODELINI YARATISHNING ILMIY-NAZARIY TAHLILI.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston ekologik turizm sohasida yashil investitsiyalarni jalb etish asosida raqobatbardosh va barqaror rivojlanish modelini shakllantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot davomida yashil investitsiyalarning nazariy mohiyati, ularning turizm sektoridagi o‘rni hamda O‘zbekiston ekologik turizmining hozirgi holati tahlil qilindi. Maqolada yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari orqali ekologik loyihalarni moliyalashtirishning samarali usullari taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: yashil investitsiyalar, ekologik turizm, barqaror rivojlanish, moliyaviy mexanizmlar, davlat-xususiy sheriklik, O‘zbekiston.

Bugungi kunda turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko‘ra, 2019-yilda turizm sektori dunyo bo‘yicha yalpi ichki mahsulotning 10 foizdan ortig‘ini tashkil qilgan va millionlab ish o‘rinlari yaratgan. Shu bilan bir qatorda, an’anaviy turizm shakllarining tez sur’atda jadallashishi tabiatga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda ya’ni suv hamda havoning ifloslanishiga, chiqindilarning ko‘payishiga, tabiiy landshaftlarning buzilishiga va madaniy merosning yo‘qolishiga sabab bo‘lmoqda.

Manashu sababdan, so‘nggi yillarda “barqaror turizm” va “ekologik turizm” tushunchalari dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Ekologik turizm nafaqat tabiatni asrash, balki mahalliy aholining iqtisodiy farovonligini ta’minlash, ularning madaniy qadriyatlarini saqlab qolish va turizmni uzoq muddatli rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori bilan tasdiqlangan 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish Strategiyasida iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash bo‘yicha bir qator vazifalar keltirilgan. Shuningdek, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning 15-maqsadi “Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga ko‘maklashish, o‘rmonlardan oqilona foydalanish, cho‘llanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini to‘xtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yo‘qolib ketish jarayonini to‘xtatish” dan iborat. Bu esa o‘z navbatida, hududlarning turistik-rekreatsion imkoniyatlaridan samarali foydalanish va ekoturizmni rivojlantirishtirish bilan bog‘liq.

Bugungi kunda ekoturizmning rivojlanish yo‘nalishlari va istiqbollari tabiat qonuniyatlari va geotizimlar barqarorligi bilan bog‘liq holda shakllanmoqda. Mamlakatimizning tabiiy-iqlim sharoiti, rekreatsion resurslari ekologik turizmni har bir hududga mos ravishda rivojlantirishga imkoniyat yaratadi.

O‘zbekiston o‘zining geografik joylashuvi, tabiiy resurslari va boy madaniy merosi bilan ekologik turizmni yksaltirish uchun katta salohiyatga ega davlatdir. Mamlakat hududining qariyb 10 foizi muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan iborat bo‘lib, ularda yuzlab noyob flora va fauna xilma-xilligi mavjud. Shuningdek, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlaridagi tarixiy-madaniy meros ekologik va madaniy turizmni uyg‘unlashtirish zamin yaratadi.

Biroq, bu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun ekologik turizmni rivojlantirishda moliyaviy va tashkiliy mexanizmlarni mustahkamlash, ayniqsa, yashil investitsiyalarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu o‘rinda yashil investitsiyalarning mohiyati va ularning turizm sohasidagi o‘rniga to‘xtalib o‘tish maqolaning asl mohiyatini ochib berishga turtki bo‘ladi.

Yashil investitsiyalar deyilganda, atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirgan holda, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlovchi va ekologik barqarorlikni mustahkamlovchi loyihalarga yo‘naltirilgan sarmoyalar majmuasi nazarda tutiladi. (OECD, 2020).

Turizm sohasida yashil investitsiyalar quyidagi yo‘nalishlarda o‘z ifodasini topadi:

- energiya va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish;
- chiqindilarni qayta ishlash tizimlarini rivojlantirish;
- ekologik toza transport va “yashil” infratuzilmani yaratish;
- tabiiy hududlarda ekologik me’yorlarga mos mehmonxonalar va dam olish maskanlari barpo etish.

Bu kabi sarmoyalar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki uzoq muddatda turizmning iqtisodiy samaradorligini oshirishga ham yordam beradi. Yashil

investitsiyalar orqali ekologik turizmni rivojlantirish mamlakatning xalqaro imijini yuksaltiradi, tabiiy hududlarga ma’uliyat bilan sayr qiladigan turistlar oqimini ko‘paytiradi va shu bilan bir qatorda, mahalliy aholiga doimiy daromad manbaini yaratadi.

O‘zbekiston ekologik turizmining hozirgi holatiga nazar soladigan bo‘lsak, mamlakatning tabiiy sharoiti va landshafti ekologik turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Ugom–Chotqol, Zarafshon, Hisor, Nurota, Qizilqum kabi tabiiy hududlar ekoturizmning asosiy yo‘nalishlari sifatida qarab kelinmoqda.

2020–2025 yillarga mo‘ljallangan “Barqaror turizmni rivojlantirish” davlat dasturi doirasida ekologik yo‘nalishdagi infratuzilmani modernizatsiya qilish, mahalliy jamoalarni turizm xizmatlariga jalb etish va yangi turizm mahsulotlarini yaratish choralari belgilangan.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston hukumati ekologik loyihalarni moliyalashtirishda yangi mexanizmlarni joriy etmoqda. Jumladan, 2023-yilda mamlakat tarixida ilk bor Londonda yashil davlat obligatsiyalari (Green Eurobonds) chiqarildi. Ushbu tashabbus ekologik infratuzilmani rivojlantirish, chiqindilarni boshqarish tizimini yaxshilash hamda barqaror turizm loyihalarini moliyalashtirish yo‘lida muhim qadam bo‘ldi. Afsuski, amaliyotda bir qator muammolar ham mavjud ya’ni, mahalliy biznes uchun ekologik loyihalarga sarmoya kiritish imkoniyatlari cheklangan; malakali kadrlar, ekologik menejerlar va gidlar yetishmaydi; infratuzilma ko‘plab hududlarda eskirgan yoki ekologik standartlarga javob bermaydi; ekoturizm faoliyatining ekologik ta’sirini baholash tizimi hali to‘liq yo‘lga qo‘yilmagan.

Bu omillar O‘zbekiston ekologik turizmining to‘liq potensialini amalga oshirishda to‘siq bo‘lib turibdi.

Yashil investitsiyalarni jalb qilishning moliyaviy mexanizmlari:

Yashil obligatsiyalar va ekologik kreditlar-yashil obligatsiyalar ekologik loyihalarni moliyalashtirish uchun chiqariladigan qimmatli qog‘ozlar bo‘lib, ularning daromadi atrof-muhitni muhofaza qilishga yo‘naltiriladi. O‘zbekistonning Londonda chiqargan yashil obligatsiyalari bu borada muhim bosqich bo‘ldi. Kelgusida ushbu amaliyotni mahalliy darajada ham kengaytirish, ya’ni milliy banklar orqali ekologik kredit tarmoqlarini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Soliq imtiyozlari va subsidiya siyosati- davlat yashil loyihalarni rag‘batlantirish uchun daromad solig‘idan ozod etish, imtiyozli kredit stavkalari, investitsion subsidiya va grantlar tizimini joriy qilmoqda. Bu choralar ekologik loyihalar uchun moliyaviy barqarorlikni oshiradi va xususiy sarmoyadorlarni jalb qiladi.

Davlat-xususiy sheriklik modeli ekologik turizm infratuzilmasini barpo etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qila oladi. Bu model xususiy sarmoyadorlar uchun xavfni kamaytirib davlat uchun qo‘shimcha resurslar yaratadi. Ayniqsa, qo‘riqxona va milliy bog‘lar hududida ekologik dam olish maskanlarini barpo etishda ushbu yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi ma’lumotlarni ko’rib chiqgan holda, bizningcha quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Eng avvalo milliy ekologik turizm strategiyasini ishlab chiqish va ushbu strategiya ekologik turizmning maqsadlari, moliyaviy mexanizmlari, infratuzilma rivoji, kadrlar tayyorlash hamda monitoring tizimini o‘z ichiga olishi lozim; tabiiy resurslarga asoslangan mintaqaviy klasterlar

yaratish orqali turizmning hududiy rivojlanishini muvozanatlashtirish zarur. Bundan tashqari, yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlar va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni kuchaytirish; ekologik toza transport vositalari, chiqindi boshqaruvi, energiya tejamkor mehmonxonalar va raqamli xizmatlarni joriy etish, va eng asosiysi, har bir ekoturizm loyihasi bo‘yicha ekologik va ijtimoiy ta’sir monitoringini muntazam olib borish, ochiq hisobot tizimini joriy etish O’zbekistonda ekologik turizm sektoridagi yashil ivestitsiyalarning barqaror rivojini taminlaydi.

Mamlakatning tabiiy boyliklari, tarixiy merosi va geografik imkoniyatlari bu yo‘nalishda ulkan salohiyat yaratadi. Shu bilan birga, mavjud muammolar – moliyaviy resurslar cheklanganligi, infratuzilmaning eskirganligi va malakali kadrlar yetishmovchiligi – tizimli yondashuvni talab etadi.

Agar O‘zbekiston ekologik turizmni rivojlantirishda yashil investitsiyalarni keng jalb qilsa, mahalliy jamoalarni faol ishtirokchi sifatida qo‘llab-quvvatlasa va barqaror infratuzilmani shakllantirsa, u holda nafaqat ekologik muvozanatni saqlash, balki turizm orqali iqtisodiy farovonlikni ham ta’minlash mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi (O‘zbekiston Respublikasi). (2024). Yashil loyihalar uchun investitsion imtiyozlar. Toshkent. www.mef.uz
2. Moliya vazirligi (O‘zbekiston Respublikasi). (2023). Yashil davlat obligatsiyalarini chiqarish bo‘yicha hisobot. UNDP O‘zbekiston yangiliklar portal
3. Turizm vazirligi (O‘zbekiston Respublikasi). (2023). 2020–2025 yillarga mo‘ljallangan barqaror turizmni rivojlantirish dasturi. Toshkent. www.uzbektourism.uz.
4. Gossling, S., Skott, D., va Hall,. M. (2015). Turizm va suv: o‘zaro ta’sirlar, oqibatlar va muammolar. Channel View Publications. ResearchGate
5. Honey, M. (2008). Ekoturizm va barqaror rivojlanish: Kim jannatga egalik qiladi? Island Press nashriyoti, AQSh
6. OECD – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti. (2020). Yashil moliya va investitsiyalar: Yashil investitsiya moliyasini safarbar etish. OECD Publishing.
7. UNWTO – Jahon Turizm Tashkiloti. (2020). Turizm va Barqaror Rivojlanish Maqsadlari. BMT nashriyoti. www.unwto.org
8. Weaver, D. (2017). Ekoturizm. Wiley Blackwell nashriyoti. Wiley Online Library
9. www.lex.uz
10. www.norma.uz